

O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini soni
- II. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar


I. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-mart holatiga ko‘ra, respublikada 61,1 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,2 mingta (20,0 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,5 mingta (13,9 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,1 mingta (10,1 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,0 mingta (8,1 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,2 mingta (6,9 %);
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,8 mingta (6,2 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7 %) to‘g‘ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalarini ulushi

2026-yil 1-mart holatiga ko‘ra





II. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 175,0 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 7,7 foizga oshgan.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	175 005,5	107,7
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 578,1	106,8
Andijon viloyati	14 001,7	108,1
Buxoro viloyati	7 749,3	108,0
Jizzax viloyati	5 198,4	105,3
Qashqadaryo viloyati	6 114,0	106,2
Navoiy viloyati	47 649,4	103,4
Namangan viloyati	5 615,1	108,8
Samarqand viloyati	8 966,1	108,6
Surxondaryo viloyati	2 172,6	108,7
Sirdaryo viloyati ¹⁾	4 548,5	108,5
Toshkent viloyati	25 482,6	107,0
Farg‘ona viloyati	7 729,5	107,8
Xorazm viloyati	4 788,7	106,1
Toshkent shahri	27 876,0	106,8

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda Navoiy viloyatida (43,2 mln so‘m), Toshkent shahrida (8,9 mln so‘m), Toshkent viloyatida (8,1 mln so‘m), Sirdaryo viloyatida (4,8 mln so‘m) respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi (4,6 mln so‘m)dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 105,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Sirdaryo va Namangan viloyatlarida 106,6 %, Samarqand viloyatida - 106,5 %, Buxoro viloyatida – 106,4 %, Surxondaryo va Andijon viloyatlarida 106,2 % qayd etilib respublika ko‘rsatkichidan yuqori natija qayd etilmoqda.

¹⁾viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-fevral oylarida



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 146,8 trln so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,8 foizni tashkil etgan holda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 13,1 trln so‘m (7,5 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 14,1 trln so‘m (8,1 %) hamda suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 1,0 trln so‘m (0,6 %)ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi 2026-yilning yanvar-fevral oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-fevral oylarida respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – 6,9 mlrd m³, neft – 103,1 ming t, ko‘mir – 0,7 mln t, avtomobil benzini – 204,4 ming t, portlandsement – 2,7 mln t, ip kalava – 103,5 ming t, yumshoq bug‘doy va spelta uni – 210,7 ming t.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral ¹⁾	2025-yil yanvar-fevral ¹⁾	2026-yil yanvar-fevral
Avtomobil dvigatellari, dona	41 518	30 592	34 562
Avtomobil benzini, ming t	241,1	188,3	204,4
Ko‘mir, mln t	0,7	0,7	0,7
Neft, ming t	118,5	105,8	103,1
Tabiiy gaz, mlrd m ³	7,7	7,4	6,9
Gaz kondensati, ming t	214,7	187,7	157,7
Portlandsement, mln t	1,6	2,2	2,7

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:


[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 %, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 13,0 %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish va mashina va uskunalarini ta‘mirlash va o‘rnatishning ulushi – 16,5 % hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,3 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 18,5 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 46,6 %, quyi texnologiyali – 33,8 foizni tashkil etgan.



O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar-fevral oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil ¹⁾	2026-yil
Yuk avtomobillari	534	642
Yengil avtomobillar	57 334	64 221
<i>shundan:</i>		
<i>Maxsus yengil avtomobillar</i>	3 812	6 380
“Cobalt”	19 461	23 216
“Damas”	12 983	12 301
“Tracker”	5 837	6 210
“Onix”	6 718	5 215
“KIA”	4 102	4 039
“Chery”	1 392	1 290
“Haval”	1 117	2 405
“BYD”	1 912	3 165

¹⁾ 2025-yilning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-fevral oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 106,0 foizni, yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 86,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral ¹⁾	2025-yil yanvar-fevral ¹⁾	2026-yil yanvar-fevral
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	14 559,1	14 392,1	15 257,9
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma‘lumotlariga asosan)</i>	13 492,7	11 585,9	10 678,0
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma‘lumotlari asosida)</i>	1 066,4	2 806,2	4 579,9
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	5 948,1	5 221,6	4 539,4
Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz, mln m ³ (yirik korxonalar)	26,9	15,3	-

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan to‘qimachilik chiqindilarida 0,4 foizga kamayish, oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarda 28,8 foizga ko‘payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral ¹⁾	2025-yil yanvar-fevral ¹⁾	2026-yil yanvar-fevral
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd so‘m	95,3	99,9	128,7
Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	66,5	71,6	68,1
To‘qimachilik chiqindilari, t	2 835,8	3 614,4	3 599,0

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2014:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas‘ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

Manzil:

